

## **O'ZBEKISTONDAGI TA'LIM MUASSASALARIDA XORIJY TILLARNI FOYDALI METOD VA SXEMALAR ASOSIDA ÒQITISH**

*Sharipova Hurmatoy Baxodirovna*

*Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili yonalishi studenti.*

*Oringalieva Dana Ismagul kizi*

*chet tillari fakulteti. Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili yonalishi  
stajer oqituvchi, Nukus davlat Pedagogika instituti*

Rivojlanayotgan davlatlar qatorida o'zining o'rniga ega bo'lgan O'zbekiston bugungi kunda barcha sohalar bo'yicha rivojlanib o'z o'rnini mustahkamlab kelmoqda. Bu rivojlanishning asosiy bosqichlaridan biri ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, chet tillarini o'qitishga qaratilgan e'tibordir. O'zbekistondagi rivojlanayotgan yo'nalishlar orasida ta'lim sohasi juda ahamiyatli o'ringa ega. Bunga misol sifatida prezidentimiz tomonidan joriy qilinayotgan ta'lim sohasidagi qarorlar va qonunlarni keltirishimiz mumkin. Chet tillarini keng qamrov asosida barcha ta'lim dargohlarida o'qitish kelajakda rivojlanishi kutilayotgan barcha sohalar uchun poydevor deya qaralmoqda.

Xorijiy tillarining ahamiyati nafaqat ta'lim sohasida balki, boshqa sohalar uchun ham muhim. Shu bois, chet tillarini o'rganish va o'rgatish reytingi barcha rivojlanayotgan davlatlarda kundan kunga o'sib bormoqda. Bunga sabab esa hozirgi zamon texnologiyalarining murakkablashib ketgani va yosh avlodni bilimga bo'lgan qiziqishidir. Shu qatorda davlatimiz tomonidan xorijiy tillarni o'rganish uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlar ham ahamiyatsiz emas. Ushbu maqola orqali O'zbekistonda ta'lim tizimga fan sifatida kiritilgan xorijiy tillarni yangi metodlar va jadvallar asosida o'qitishning foydali tomonlari va rivojlanish bosqichidagi sohalarda aynan xorijiy tillarning o'rni va ahamiyati. Shuningdek, ta'lim sohasining rivojlanishi uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlar ko'rib chiqiladi. O'zbekistondagi ta'lim dargohlarida chet tillarini o'qitish orqali erishilayotgan yutuqlar va fanga kiritilayotgan o'zgarishlar yillar davomida o'z natijasini berib kelayotgani. Shu sababli, aniq va foydali bo'lgan metod va o'quv qo'llanmalarini yanada mukammal tarzda yaratish. Bilimga tashna bo'lgan avlodni tarbiyalash va kelajakdagi yangi O'zbekiston ta'lim sistemasi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladigan pedagog o'qituvchilarni tayyorlash. [1;89]

Bunungi kunga qadar ko'plab o'qituvchilar tomonidan turli qiziqarli metod va jadvallar o'ylab topilgan. Yangi metodlar dastlab xorijiy til o'rganuvchi o'quvchilar orasida tajribadan o'tkazilgan bo'lsa, bunga asosiy sabab chet tillarini o'rganuvchi har bir o'quvchi boshqa ta'lim sohasini o'rganuvchilarga nisbatan ilgor va qobilyatli bo'lishidir. Yangi kashf etilayotgan metodlar asosan xorijiy til biluvchilar orasida tajribadan o'tkazilishiga yana bir ahamiyatli sabab bu yangi metodlarning ilmiy g'oyalari asosan chet tillarini o'rgatuvchi sxemalardan olinganligi. Shuningdek, xorijiy davlatlarning mukammal sxemalariga tayangan holda ulardanda muvaffaqiyatli bo'ladigan metod va o'quv tuzilmalarini yaratish.

Tajribadan o'tkazilgan barcha yangi metodlarni ta'lim muassasalaridagi mutaxassis o'qituvchilarga o'rgatish. Buning uchun esa malakali pedagoglar uchun ham zaruriy bo'lgan o'quv qo'llanmalar sifatini va miqdorini oshirish. Shuningdek, o'qituvchilar uchun foydali aynan metodikaga bog'liq seminar mashg'ulotlarini sifatini xorijiy davlatlarning malakaviy amaliyotlari bilan bir xil darajaga ko'tarish orqali O'zbekistonning ta'lim dargohlarida chet tilarini o'qitishni yanada yuksaltirish. Chet tillariga bo'lgan e'tibor va qiziqishni maktabgacha va maktab bosqichida bo'lgan o'rganuvchilar orasida keng miqyosda rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Sababi shundaki, aynan shu yoshdagi o'rganuvchilar xorijiy tillarni tez va ravon o'rganadilar.[4;115] Ta'limning keyingi bosqichlarida ko'plab qiyinchiliklarni oson tarzda yengib o'tadilar. Nafaqat O'zbekiston balki, boshqa davlatdagi ta'lim dargohlaridan ham o'zлari uchun eshik ocha oladilar. Bu kabi fikrlar bugunga qadar ko'plab akademik o'qituvchi va metodistlar tomonidan tasdiqlangan. Chunki o'quv tizimidagi foydali va qiziqarli har qanday metodlar va sxemalar o'qishga e'tiborsiz bo'lgan o'quvchining ham diqqatini torta oladi. Shu bilan birga o'tilayotgan darsning mazmunini aniq yoritib o'quvchilar xotirasiga ma'lumotlarni yetkazib beradi. Aynan shu sababli yangi tilni o'rganishda metod va foydali jadvallar muhim ahamiyat kasb

etadi. Xorijiy tillarni o‘rganish uchun bugungi kunga qadar tayyorlangan metodlar o‘zining samarasini berib kelmoqda. Sababi shundaki, metodlar mukammal tarzda uygunlashtirilgan yangi til o‘rganuvchilar uchun tushunarli tarzda yoritilgan. [3;51]

Mavzu doirasida O‘zbekistonidagi ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi o‘quvchilar uchun mo‘jallangan foydali metodlar:

Chet tillarini topshiriqlarga asoslangan holda o‘rgatish yani sahna ko‘rinishi yoki ijodiy loyihalar asosida o‘rgatish metodi. Asosan o‘quvchilarda diqqatni jamlash va yangi o‘rganilayotgan tilni voqealar asosida tushuntirishga yordam beradi.

Maktabgacha tayyorlov va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun foydali bo‘lgan “Harakatlar o‘yini” metodidan foydalanish. Bu metod asosan o‘quvchilar o‘rtasida yangi o‘rganilayotgan tilning fikr almashish orqali qulay tarzda o‘rganishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda chet tillarini o‘qitishni rivojlantirish metod va dars qo‘llanmalariga bog‘liq deb hisoblanadi. Shuningdek o‘rganuvchining muhiti ham nazardan chetda qolmaydi. Sababi shundaki, har bir qo‘llanmalarni o‘qitish uchun tuzilgan sxemalar o‘rganuvchilarning darajalariga mos ravishda ketma ketlikda tuziladi. Har bir o‘rganilgan yangi ma’lumotlar va qoidalar yangi til o‘rganuvchilarning darajalarini bosqichma bosqich ko‘tarilib borishiga sabab bo‘ladi. Aynan shuning uchun o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlar va o‘qitiladigan muhit katta ahamiyatga ega.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Jaolov. J. “Ingliz tilini o‘qitish metodikasi”. Toshkent. (89-144).
2. G. Mustafoqizi. “ Chet tillarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”.
3. Tomlinson. B. “Materials Development in Language Teaching” Cambridge University Press. (35-51)
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. “Approaches and Methods in Language Teaching”. Cambridge: Cambridge University Press. (113-115).
5. Mamirbaeva D., Djumamuratova D. SOME FEATURES OF PROJECT-BASED LEARNING //QUALITY OF TEACHER EDUCATION UNDER MODERN CHALLENGES. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 350-353.
6. <https://cambridge.org> (Cambridge University Press materiallari).